

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№2
MAXSUS SON

2026

MART



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

**BAKALAVR
TALABALARINING
MAQOLALARI
TO'PLAMI**

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 57 sahifa,
mart, 2026-yil.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINING IJTIMOIY-IQTISODIY AHAMIYATI	8
<i>Jumaniyazov Rashid Azamatovich, Ismailov Baxit Abdireymovich</i>	
O'ZBEKISTON QISHLOQ XO'JALIGINING TARMOQ TAHLILI.....	12
<i>Go'zal Samadova Solik qizi, Husan Normurodov</i>	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA DAVLAT BOSHQARUV TIZIMLARINI RAQAMLASHTIRISH	17
<i>Aytmuratov Qutlimurat Jalgasovich, Aytmuratova Ulbike</i>	
O'ZBEKISTONDA MOLIYAVIY SEKTORINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI.....	21
<i>Abduxalilov S.A., Normurodov X.E.</i>	
ФОРМИРОВАНИЕ СТРАТЕГИЧЕСКИХ ЦЕЛЕЙ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЯ.....	27
<i>Абдумажидов Шохжахон Шухратович, Захидов Шухрат Шокирович, Насиров Дилшод Фархадович</i>	
СТЕЙБЛКОИНЫ КАК ФАКТОР ТРАНСФОРМАЦИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ФИНАНСОВОГО ПОСРЕДНИЧЕСТВА	31
<i>Бахтиярова А.Б., Алиева С.С.</i>	
TASHKILOT AXBOROT TIZIMLARINI KVANT TAHDIDLARIDAN HIMOYALASHDA POST-KVANT KRIPTOGRAFIK ALGORITMLARNI QO'LLASH.....	38
<i>G'ofurova Muxlisa G'ulom qizi, Tursunova Sadoqat Abdusalom qizi</i>	
CHORVACHILIKDA QIYMAT ZANJIRI: BARQARORLIK VA DAROMAD	44
<i>Saidov Muhammadali Hakimovich, Mahammatov Hoshim, Esanbekov Diyorbek</i>	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIGA BERILAYOTGAN SOLIQ IMTIYOZLARINING SAMARADORLIGI	50
<i>Sarsengalieva Albina Askar Qizi, Sarsenbaev Baxitjan Abdulgazievich</i>	



CHORVACHILIKDA QIYMAT ZANJIRI: BARQARORLIK VA DAROMAD

Saidov Muhammadali Hakimovich

Toshkent davlat agrar universiteti
Iqtisodiyot fanlari doktori, professor
ORCID: 0000 0003 1996 2878
3167707@gmail.com

Mahammatov Hoshim

Toshkent davlat agrar universiteti
Buxgalteriya hisobi, tahlil va audit kafedrasida katta o'qituvchisi

Esanbekov Diyorbek

Raqamli iqtisodiyot yo'nalishining 4-bosqich talabasi
diyorbekesanbekov1@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy chorvachilik tizimlarida qiymat zanjirini boshqarishning barqarorlik va iqtisodiy samaradorlikka ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi chorvachilik sektorida qiymat zanjiri samaradorligini oshirish hamda resurslardan barqaror foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, qiymat zanjiriga innovatsion texnologiyalarni joriy etish ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish, mahsulot sifatini yaxshilash hamda daromadlilik ko'rsatkichlarining barqaror o'sishini ta'minlaydi. Maqola yakunida chorvachilikda qiymat zanjirini takomillashtirishga qaratilgan amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: chorvachilik, qiymat zanjiri, barqarorlik, daromadlilik, innovatsion texnologiyalar, resurs samaradorligi, agrobiznes.

Abstract. This article analyzes the impact of value chain management in modern livestock systems on sustainability and economic efficiency. The aim of the study is to develop mechanisms for improving the efficiency of the livestock value chain and ensuring sustainable use of resources. The research findings indicate that the introduction of innovative technologies into the value chain helps reduce production costs, improve product quality, and ensure stable growth in profitability indicators. The article concludes with practical recommendations for improving value chain management in the livestock sector.

Keywords: livestock, value chain, sustainability, profitability, innovative technologies, resource efficiency, agribusiness.

Аннотация. В данной статье анализируется влияние управления цепочкой создания стоимости в современных системах животноводства на устойчивость и экономическую эффективность отрасли. Цель исследования заключается в разработке механизмов повышения эффективности цепочки стоимости в секторе животноводства и обеспечения устойчивого использования ресурсов. Результаты исследования показывают, что внедрение инновационных технологий в цепочку создания стоимости способствует снижению себестоимости производства, повышению качества продукции и обеспечению стабильного роста показателей доходности. В заключительной части статьи предложены практические рекомендации по совершенствованию цепочки стоимости в животноводстве.

Ключевые слова: животноводство, цепочка стоимости, устойчивость, доходность, инновационные технологии, эффективность ресурсов, агробизнес.



KIRISH

Ushbu tadqiqot zamonaviy chorvachilik tizimlarida qiymat zanjirini boshqarishning barqarorlik hamda iqtisodiy samaradorlikka ta'sirini tizimli jihatdan ochib berdi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, qiymat zanjirini optimallashtirish va unda innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali ishlab chiqarish tannarxi sezilarli darajada kamayadi, mahsulot sifati oshadi hamda daromadlilik ko'rsatkichlari barqaror ravishda yaxshilanadi. Shuningdek, resurslardan samarali foydalanish va chiqindilarni kamaytirishga qaratilgan amaliy mexanizmlar ekologik barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Maqolada ishlab chiqarishning qiymat zanjiri elementlari bo'yicha integratsiyani mustahkamlash, innovatsion texnologiyalar va avtomatlashtirish tizimlarini joriy etish, logistika hamda saqlash infratuzilmasini takomillashtirish, sifat nazorati tizimlarini kuchaytirish, shuningdek, fermerlar va agrobiznes subyektlarini moliyaviy hamda maslahat yordami orqali qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar taklif etiladi.

Mamlakatimizda chorvachilik sohasini rivojlantirish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 11-martdagi PF-6033-sonli "Qishloq xo'jaligi va chorvachilikni rivojlantirish bo'yicha strategik chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmonida chorvachilik klasterlarini rivojlantirish, sut va go'sht ishlab chiqarishning qiymat zanjiri samaradorligini oshirish masalalari belgilangan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-apreldagi 312-sonli "Chorvachilik va agrobiznes klasterlarini rivojlantirish bo'yicha dastur" to'g'risidagi qarorida fermer xo'jaliklarini integratsiyalashgan tizimga jalb etish hamda innovatsion texnologiyalarni joriy etish bo'yicha muhim vazifalar ko'rsatib o'tilgan.

Umuman olganda, chorvachilikni rivojlantirish, agrar sohada innovatsiyalarni rag'batlantirish hamda resurslardan samarali foydalanishni ta'minlashga qaratilgan ushbu qaror va dasturlar qiymat zanjiri islohotlarini amalga oshirish uchun zarur me'yoriy-huquqiy hamda moliyaviy asosni shakllantiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Professor N.N. Oblomurodov O'zbekiston qishloq xo'jaligi tizimida agroklastlar hamda qayta ishlash sanoatini rivojlantirish qiymat zanjirining samaradorligini oshirishga xizmat qilishini ta'kidlaydi. Olimning fikricha, ishlab chiqarishdan tortib qayta ishlash va eksportgacha bo'lgan bosqichlarni o'zaro integratsiyalash orqali agrar sektorda yuqori qo'shimcha qiymat yaratish mumkin [4].

Iqtisodchi olim S.J. Yangiboevning ta'kidlashicha, agrar sektorni modernizatsiya qilish jarayonida investitsiyalarni jalb qilish va innovatsion infratuzilmani rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, agrar ishlab chiqarish zanjirining barcha bosqichlariga investitsiyalarni jalb etish ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi hamda mahsulotning bozor raqobatbardoshligini ta'minlaydi [5].

Qishloq xo'jaligi va chorvachilik tizimlarida qiymat zanjiri tahlili ishlab chiqarish, qayta ishlash va bozor o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklarni aniqlashda muhim ahamiyatga ega. USAID tadqiqotlariga ko'ra, qishloq xo'jaligi qiymat zanjiri ishlab chiqarish, logistika, qayta ishlash, saqlash va marketing kabi bir-biri bilan uzviy bog'liq faoliyat turlaridan iborat bo'lib, ularning samarali tashkil etilishi mahsulot qiymatini oshirish va fermerlarning daromadlarini ko'paytirishga xizmat qiladi.

Chorvachilik tizimlarida qiymat zanjiri tahlili rivojlanayotgan mamlakatlarda bozor mexanizmlarini takomillashtirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. McDermott va boshqa tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida chorvachilik qiymat zanjirini tahlil qilish ishlab chiqarish hamda marketing tizimlari o'rtasidagi murakkab iqtisodiy aloqalarni aniqlashga yordam berishi, shuningdek, samarali rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda muhim vosita ekanligi ta'kidlangan [6].

Umuman olganda, ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, chorvachilik sohasida qiymat zanjirini samarali boshqarish ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish hamda agrobiznesning barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda zamonaviy chorvachilik tizimlarida qiymat zanjirini boshqarishning iqtisodiy samaradorlik hamda barqarorlikka ta'sirini o'rganish uchun bir qator ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash va realizatsiya qilish bosqichlaridagi iqtisodiy ko'rsatkichlar tahlil qilinib, qiymat zanjirining samaradorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar baholandi.

Tadqiqotning axborot bazasini qishloq xo'jaligi va chorvachilik sohasiga oid ilmiy adabiyotlar, statistik ma'lumotlar, ilmiy maqolalar hamda xalqaro tashkilotlarning hisobotlari tashkil etdi. Olingan natijalar asosida chorvachilik sohasida qiymat zanjirini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.



TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi yillarda O'zbekiston agrar sektorida chorvachilik tarmog'i iqtisodiyotning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida barqaror rivojlanib bormoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yilda mamlakatda qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 508,7 trillion so'mni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2024-yilga nisbatan 4,4 foizga oshgan.

Mazkur hajmning 265,7 trillion so'mi chorvachilik mahsulotlariga to'g'ri keladi. Bu esa chorvachilik tarmog'ining agrar iqtisodiyotda muhim ulushga ega ekanligini hamda mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda katta ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

1-jadval

Ko'rsatkich	2023	2024	2025
Go'sht (mln tonna)	2.7	2.8	2.9
Sut (mln tonna)	8.7	8.9	9.0
Jun (ming tonna)	32.5	33.0	33.3

Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish (2023–2025)

2-jadval. Ishlab chiqarish strukturasida xo'jaliklar ulushi (%)

Xo'jalik turi	Go'sht	Sut
Dehqon xo'jaliklari	81.3 %	90.6 %
Fermer xo'jaliklari	10–12 %	6–7 %
Qishloq xo'jaligi tashkilotlari	7–8 %	1–2 %

Bunda go'sht ishlab chiqarish hajmi 2023–2025-yillar davomida 7–8 foizga oshgan. Sut ishlab chiqarish hajmi esa 9 million tonnaga yetgan. Chorvachilik mahsulotlarining asosiy qismi dehqon xo'jaliklarida ishlab chiqarilmoqda. Jumladan, sut ishlab chiqarishda dehqon xo'jaliklarining ulushi 90 foizdan ortiqni tashkil etadi.

3-jadval. Sut mahsulotlari qiymat zanjiri samaradorligi

Qiymat zanjiri bosqichi	Mahsulot turi	Sotish narxi	1000 litr sutdan tushum	Qo'shimcha qiymat
1-bosqich	Xom sut	6 000 so'm/litr	6 000 000 so'm	—
2-bosqich	Qatiq	9 000 so'm/litr	9 000 000 so'm	+50 %
3-bosqich	Pishloq	90 000 so'm/kg	9 000 000 so'm	+50 %

Sutni qayta ishlash orqali mahsulotga qo'shimcha qiymat qo'shilib, daromad 50–60 % ga oshadi. Bu qiymat zanjirining iqtisodiy samaradorligini ko'rsatadi.

4-jadval. Go'sht mahsulotlari qiymat zanjiri

Bosqich	Mahsulot turi	Narx (1 kg)	Qo'shimcha qiymat
1	Tirik mol	55 000 so'm	—
2	Go'sht (so'yilgan)	95 000 so'm	+73 %
3	Qayta ishlangan mahsulot (kolbasa va yarim tayyor mahsulot)	140 000 so'm	+47 %

Go'shtni qayta ishlash orqali qiymat zanjiri samaradorligi oshadi va ishlab chiqaruvchilar daromadi 2 barobarga yaqin ko'payadi.



Ishlab chiqarish → Qayta ishlash → Saqlash → Marketing → Sotish

Natija → Past daromad → O'rta daromad → Oo'shimcha qiymat → Yuqori daromad

1-rasm. Qiymat zanjiri bosqichlari

Hududlar kesimida chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng yuqori bo'lgan viloyatlar qatoriga Qashqadaryo (31,6 trillion so'm), Samarqand (29,8 trillion so'm), Buxoro (25,8 trillion so'm) hamda Toshkent viloyati (25,6 trillion so'm) kiradi. Ushbu hududlarda yem-xashak bazasining rivojlanganligi, fermer xo'jaliklari sonining ko'pligi hamda chorvachilik infratuzilmasining nisbatan yaxshi shakllanganligi muhim omil hisoblanadi.

Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o'sishi ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish hamda qiymat zanjirining bosqichma-bosqich rivojlanishi bilan izohlanadi. 2025-yilda mamlakatda go'sht ishlab chiqarish hajmi 2,987 mln tonnaga yetib, o'tgan yilga nisbatan 1,5 foizga oshgan, sut ishlab chiqarish hajmi esa 9 mln tonnani tashkil etgan.

2025-yilning birinchi choragida ham chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish yuqori darajada bo'lib, 564,1 ming tonna go'sht hamda 2 mln tonna sut ishlab chiqarilgan. Ushbu ko'rsatkichlar chorvachilik mahsulotlari bozorida barqaror o'sish kuzatilayotganini ko'rsatadi.

Chorva mollari sonining ko'payishi ham chorvachilik tarmog'ining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. 2026-yil boshiga kelib mamlakatda 14,5 mln bosh qoramol, 5,15 mln bosh sigir, 24,9 mln bosh qo'y va echki, 299,6 ming bosh ot hamda 118,6 mln bosh parranda mavjud bo'lgan. Ushbu ko'rsatkichlar chorvachilik ishlab chiqarish salohiyatining yuqoriligini ko'rsatadi.

Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishda dehqon va tomorqa xo'jaliklari asosiy o'rin egallaydi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, go'sht ishlab chiqarishning 81,3 foizi hamda sut ishlab chiqarishning 90,6 foizi aynan dehqon xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keladi. Umuman olganda, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 62,3 foizi dehqon xo'jaliklari tomonidan ishlab chiqariladi.

Shuningdek, qo'y va echki go'shti ishlab chiqarish ham so'nggi yillarda sezilarli darajada oshgan. 2024-yilda mamlakatda 475,2 ming tonna qo'y va echki go'shti ishlab chiqarilgan bo'lib, shundan 432,8 ming tonnasi dehqon xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelgan. Bu esa chorvachilik qiymat zanjirida kichik xo'jaliklarning muhim o'rin tutishini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, chorvachilik mahsulotlariga bo'lgan talabning ortishi narxlarning o'sishiga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Masalan, 2025-yilda suyakli mol go'shti narxi 23,9 foizga, suyaksiz mol go'shti narxi 25 foizga, qo'y go'shti narxi esa 26,8 foizga oshgan. Bu holat ishlab chiqarish xarajatlari, yem-xashak narxlarining oshishi hamda logistika xarajatlari bilan bog'liq.

Chorvachilikda qiymat zanjiri va daromadlilik bo'yicha amaliy tahlil

1. Boshlang'ich ma'lumotlar (10 bosh sigirli kichik fermer xo'jaligi)

Ko'rsatkich	Miqdor
Sigirlar soni	10 bosh
Bir sigirdan o'rtacha sut	18 litr/kun
Umumiy sut ishlab chiqarish	180 litr/kun
Oy davomida sut	5400 litr

2. Ishlab chiqarish xarajatlari

Xarajat turi	Oyiga (so'm)
Yem-xashak xarajatlari	18 000 000
Veterinariya va dori vositalari	1 200 000
Ishchi kuchi	4 000 000
Elektr energiyasi va suv	800 000
Boshqa xarajatlar	1 000 000

Jami xarajat:

25000000 so'm



3. Qiymat zanjiri bo'yicha daromad

1-bosqich: Xom sutni sotish

Ko'rsatkich	Miqdor
Oyiga sut	5400 litr
1 litr sut narxi	6 000 so'm

 $5\,400 \times 6\,000 = 32\,400\,000$ so'm
Daromad: $32\,400\,000 - 25\,000\,000 = 7\,400\,000$ so'm

2-bosqich: Sutni qayta ishlash (qiymat zanjiri kengayishi)

Agar fermer sutni qatq yoki pishloqqa qayta ishlasa:

Ko'rsatkich	Miqdor
10 litr sutdan	1 kg pishloq
5400 litr sutdan	540 kg pishloq

Pishloq narxi

1 kg pishloq = 90 000 so'm

 $540 \times 90\,000 = 48\,600\,000$ so'm

Qo'shimcha qayta ishlash xarajati

Xarajat	Miqdor
Ishlab chiqarish xarajati	25 000 000
Qayta ishlash xarajati	5 000 000

Jami xarajat

30 000 000 so'm

4. Yakuniy daromad

Ko'rsatkich	Miqdor
Jami tushum	48 600 000
Jami xarajat	30 000 000

 $48\,600\,000 - 30\,000\,000 = 18\,600\,000$ so'm

5. Tahlil natijasi

Faoliyat turi	Foyda
Faqat sut sotish	7,4 mln so'm
Qayta ishlash orqali sotish	18,6 mln so'm

Farq: $18,6 - 7,4 = 11,2$ mln so'm

Demak, qiymat zanjirining qayta ishlash bosqichini qo'shish fermer daromadini taxminan 2,5 barobar oshirish imkonini beradi.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, chorvachilikda qiymat zanjirini samarali tashkil etish ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Xususan, ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash hamda realizatsiya bosqichlarining o'zaro integratsiyalashuvi mahsulot tannarxini kamaytirish, qo'shimcha qiymat yaratish va daromadlilik darajasini oshirish imkonini beradi.

Shuningdek, innovatsion texnologiyalarni joriy etish resurslardan samarali foydalanish hamda ishlab chiqarish hajmini yanada oshirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

1. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, zamonaviy chorvachilik tizimlarida qiymat zanjirini samarali boshqarish iqtisodiy samaradorlik hamda barqaror rivojlanishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Qiymat zanjirining har bir bosqichi — ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash va realizatsiya jarayonlari — fermer xo'jaliklarining daromadlilikiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

2. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish, mahsulot sifatini oshirish hamda qo'shimcha qiymat yaratish imkonini beradi. Statistik tahlillar chorvachilik mahsulotlari hajmi va daromad ko'rsatkichlarining so'nggi yillarda barqaror o'sib borayotganini tasdiqlaydi. Ayniqsa, qayta ishlash bosqichining joriy etilishi daromad darajasining sezilarli oshishiga xizmat qilmoqda.

3. Shu bilan birga, agroklastarlar va integratsiyalashgan tizimlarni rivojlantirish, raqamli monitoring hamda boshqaruv texnologiyalarini joriy etish chorvachilik qiymat zanjiri samaradorligini yanada oshirish imkonini beradi.



4. Umuman olganda, samarali boshqariladigan qiymat zanjiri nafaqat iqtisodiy rentabellikni ta'minlaydi, balki resurslardan oqilona va barqaror foydalanish hamda qishloq xo'jaligi sektorining uzoq muddatli rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2023-yil 10-fevraldagi 45-son qarori. "Chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash va eksportni rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida".
2. Oblomurodov, N.N. Agroklastlar va integratsiyalashgan chorvachilik tizimlari. – Toshkent: Toshkent davlat agrar universiteti, 2024. – 4-bet.
3. Yangiboev, S.J. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali chorvachilik samaradorligini oshirish. // Aktuar moliya va buxgalteriya hisobi jurnali. – 2025. – Vol. 5, No. 07. – 2–4-betlar.
4. McDermott, J. Livestock Value Chains and Development. – Volume 36, Issue 2. – April 2011. – pp. 101–328.
5. FAO. Developing Sustainable Value Chains in the Livestock Sector. – Rome: Food and Agriculture Organization of the United Nations, 2021. – pp. 12–15.
6. Nosirov, B., Abdurashidov, A. Fermer xo'jaliklarida integratsiyalashgan chorvachilik tizimlari. – Andijon: Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti, 2024. – 32–35-betlar.
7. One.uz. "In 2024 the Production of Sheep Meat in Uzbekistan." <https://one.uz/en/news/uzbekistan/13521-in-2024-the-production-of-sheep-meat-in-uzbekistan>
8. UzDaily. "Uzbekistan's Agricultural Sector Output Reaches Nearly 539 Trillion Soums in 2025." <https://www.uzdaily.uz/en/uzbekistans-agricultural-sector-output-reaches-nearly>
9. Kun.uz. "Meat Prices Climb Again in Uzbekistan as Imports Rise and Production Growth Slows." <https://kun.uz/en/news/2026/02/02/meat-prices-climb-again-in-uzbekistan>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2-Maxsus son.

Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100